ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

«Yoshnoma» qismida raqamlar inson hayotining bosqichlari, ruhiy sayr va koinot tartibini ramziy tarzda ifodalaydi. Toq sonlarning ustunligi diniy va tasavvufiy ahamiyatni ko‘rsatadi. Natijada sonlar ramziyligi Yassaviy ijodida uslubiy va konseptual vosita sifatida qadrlanadi.

Resume. The article describes number symbolism in Ahmad Yassaviy’s work. In «Devoni Hikmat» and the «Yoshnoma» section, numbers symbolically represent stages of human life, the spiritual journey, and cosmic order. The prevalence of odd numbers emphasizes their religious and Sufi significance. Number symbolism thus serves both stylistic and conceptual functions in Yassaviy’s work.

Резюме. В статье описывается символика чисел в творчестве Ахмада Яссави. В «Devoni Hikmat» и разделе «Yoshnoma» числа символически отражают этапы жизни человека, духовное путешествие и порядок мироздания. Преобладание нечётных чисел подчёркивает их религиозное и суфийское значение. Символика чисел выполняет как стилистическую, так и концептуальную функцию в творчестве Яссави.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ARAB TILIDA ENANTIOSEMIYA HODISASI: SEMANTIK TABIATI VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o‘g‘li,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi dotsenti v.b.

Arab tilshunosligida enantiosemiya (azdad so‘zlar) hodisasiga doir bahslar til va ma’no o‘rtasidagi munosabatni qanday tushunish kerakligi haqidagi nazariy savollar bilan bevosita bog‘liq. Chunki bir leksik birlikning ikkita zid ma’noda qo‘llanishi haqidagi faraz, aslida, til birligi va ma’no birligi o‘rtasidagi tabiiy bog‘liqlik masalasini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Shu sababli enantiosemiya hodisasi arab semantikasi tarixida oddiy lug‘aviy kuzatish emas, balki til tabiati haqidagi chuqur ilmiy munozaraning markaziy ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Klassik arab tilshunos olimlari ushbu hodisani tavsiflashda ikkita asosiy yo‘nalishga ajralgan bo‘lsalar-da, yondashuvlar ichki jihatdan ham mutlaqo bir xil emas. Enantiosemiyani qabul qilgan tilshunoslarning o‘zlari ham barcha misollarni teng darajada ishonchli deb qabul qilishmagan. Ayrimlari hodisani kengroq talqin qilgan, ayrimlari esa faqat aniq ma’no va ishonchli rivoyat bilan tasdiqlangan leksemalarni haqiqiy azdad sifatida qayd etishgan. Xuddi shuningdek, bu hodisani inkor qilganlarning hammasi uni mutlaq ravishda rad etmay, enantiosemiyani mustaqil semantik hodisa sifatida emas, balki dialektlar tafovuti, ko‘chma ma’no, majoz, tarixiy ma’no o‘zgarishi yoki talaffuz va vazn farqlari bilan izohlashga urinishgan.

Sibavayhdan boshlangan lafz va ma’no o‘rtasidagi munosabatni umumiy tasniflash nazariyasi keyingi davr qarashlariga zamin yaratdi[1]. Azdad hodisasini tushunish uchun avvalo arab tilshunosligidagi mushtarak lafz, sinonimiya, zidlik va dalolat nazariyalarini bir-biridan ajratib olish zarur bo‘ladi. Chunki azdad mushtarakdan o‘sib chiqqan bo‘lsa-da, undan o‘zining keskin qarama-qarshilik xususiyati bilan farqlanadi. Shu jihatdan qaralganda, enantiosemiya (azdad) semantik maydon ichida markaziy o‘q bo‘ylab ikki qarama-qarshi qutb hosil qilgan hodisa

[1] Sibavayh. Al-Kitāb. – Qohira: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1988.

sifatida talqin qilinadi.

Ibn Sida[1] va Ibn Sikkit[2] zidlikni o‘z qarshisidagi ma’no bilan bir o‘qda turadigan lisoniy munosabat sifatida ko‘radilar. Masalan, oq bilan qora, tun bilan kun, hayot bilan o‘lim o‘rtasidagi qarama-qarshilik bitta tushuncha maydonida yuz beradi. Shu nuqtai nazardan, «الجون» lafzining oq va qora ma’nolarini ifodalashi yoki «القرء» lafzining hayz va poklik ma’nolarida qo‘llanishi oddiy ko‘p ma’nolilik emas, balki bitta semantik o‘qning qarama-qarshi uchlarini egallash hodisasidir. Bu esa enantiosemiyani arab tilining ichki semantik mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilishga asos beradi.

Ibn Anboriyning fikricha, qarama-qarshi ma’nolar bitta leksemada mujassam bo‘lishi mumkin, ammo real nutqda ma’no hech qachon kontekstdan uzilgan holda anglashilmaydi[3]. Aynan shu nuqta enantiosemiyaning tilni buzuvchi yoki chalkashtiruvchi hodisa emasligini tushuntiradi. Agar gapning siyog‘i, matnning vaziyati va nutqning maqsadi to‘g‘ri belgilansa, bir leksik birlikning qaysi ma’noda kelgani ravshanlashadi. Shuning uchun ham Ibn Anboriy bunday birliklarni til nuqsoni deb emas, balki tilning yashovchan va kontekstga tayanuvchi tabiatining ifodasi sifatida ko‘radi.

Masalan, «شام السيف» iborasida *qilichni qinidan chiqardi* va *qilichni qiniga soldi* ma’nolari birgalikda mavjud bo‘lsa-da, matnning umumiy vaziyati va oldingi-keyingi birliklar ma’noni aniqlab beradi. Xuddi shuningdek, «أخفى» fe’li *yashirdi* hamda *oshkor qildi* ma’nolarida ishlatiladi, lekin kontekstdagi ma’noga qarab bu leksemaning pargmatik ifodasi tushuntiriladi.

Ibn Durustavayh esa bitta leksema aslida bitta markaziy ma’noga ega bo‘lishini ma’qul ko‘radi[4]. Tilshunos azdad sifatida keltirilayotgan leksemalarni o‘zak ma’nosiga qaytarish mumkin, deb hisoblaydi. Biroq ba’zi hollarda matnlar va lug‘atlar shu qadar ochiq qarama-qarshi ma’nolarni qayd etadiki, ularni bitta markaziy ma’noga qaytarish sun’iy talqinga olib keladi.

Enantiosemiya haqidagi ilmiy bahslarning yana biri bu hodisaning ma’no taraqqiyoti bilan bog‘liqligidir. Til tarixida ko‘p hollarda bir so‘zning asl ma’nosi kengayadi, ko‘chadi, majozlashadi, ijtimoiy yoki uslubiy funksiyalar asosida yangi ma’nolarni qabul qiladi. Vaqt o‘tishi bilan eski va yangi ma’nolar orasidagi masofa kattalashib, hatto ular qarama-qarshi qutblarga aylanadi. «تهجّد», «المفازة» ,«سليم» kabi misollar aynan shu hodisaning natijasi sifatida ko‘rilishi mumkin. Masalan, yomon narsani yaxshi nom bilan atash («تهجّد»), xavfli joyni najot bilan ifodalash («المفازة») yoki zarar ko‘rgan odamni salomatlik bildiruvchi lafz bilan nomlash («سليم») nutq odatidagi yumshatish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunday semantik o‘zgarishlar uzoq davom etgach, natijada enantiosemiya vujudga keladi.

Bundan tashqari, arab qabilalari o‘rtasidagi nutqiy tafovut ayrim birliklarning qarama-qarshi ma’nolarda ishlatilishiga sabab bo‘lgan. «الجون» va «السدفة» kabi misollar shu jihatdan ayniqsa muhimdir. Agar bir qabila ma’lum lafzni “yorug‘lik” ma’nosida, boshqasi esa “zulmat” ma’nosida ishlatsa, keyinchalik bu ikki lahjaviy yo‘nalish yozma va lug‘aviy an’anada birlashadi. Natijada bitta lafz ikki qarama-qarshi ma’no bilan qayd etiladi. Shunday ekan, enantiosemiyani faqat ichki semantik hodisa deb tushunish yetarli emas. U tilning ijtimoiy geografiyasi, qabila nutqi va tarixiy aloqa jarayonlari bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Enantiosemiyani tadqiq etishga bag‘ishlangan maxsus asarlarda keltirilgan har bir misol ham bir xil ilmiy og‘irlikka ega emas. Ayrim misollar Qur’on, hadis, she’r va mashhur arab nutqidan olingani uchun mustahkam dalil hisoblanadi. Boshqa ayrim misollar esa faqat lug‘at muallifining rivoyatiga tayangan bo‘lib, qo‘shimcha matniy dalilsiz keltiriladi. Shu bois zamonaviy tadqiqotlarda azdad misollarini uch toifaga ajratish mumkin: birinchisi, matniy dalil bilan mustahkamlangan ishonchli misollar; ikkinchisi, lahjaviy tafovut bilan tushuntiriladigan nisbatan ishonchli misollar; uchinchisi esa faqat lug‘at an’anasi tufayli saqlanib qolgan, ammo ilmiy jihatdan qayta tekshiruv talab qiladigan misollardir.

Ibn Anboriy enantiosemiyaning faqat ism yoki fe’l bilan cheklanmasligini, balki harflar (yordamchi so‘zlar), masdarlar (harakat nomi), mushtaq birliklar (yasam so‘zlar), zarflar (ravishlar), olmoshlar va hatto tovush-hissiy ohang bilan bog‘liq birliklarda ham ko‘rinishini ko‘rsatadi[5]. Masalan, ismlarda «الحرفة» lafzining *boylik* va *faqrlik* bilan bog‘liq qarama-qarshi ma’nolari ijtimoiy va iqtisodiy hayotga daxldor semantik siljishni ko‘rsatadi. Fe’llarda «أسرّ» bir tomondan *yashirish*, ikkinchi tomondan *oshkor qilish* ma’nolarini qamrab olishi bilan diqqatga sazovor. Harflarda «أو»ning *ikkilanish* va *ta’kid* o‘rtasida turishi esa arab tili sintaktik qurilishining naqadar nozikligini ochadi. Zarflarda «وراء» lafzining makoniy yo‘nalishni

[1] Ibn Sīda. Al-Muḥkam wa al-Muḥīṭ al-Aʿẓam. – Bayrut: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya, 2000.
[2] Ibn as-Sikkīt. Iṣlāḥ al-Manṭiq. – Bayrut: Dār al-Maʿrifa, 1987.
[3] Ibn al-Anbārī. Kitāb al-Aḍdād. – Bayrut: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1997.
[4] Ibn Durustawayh. Ibṭāl al-Aḍdād. – Bayrut: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1999.
[5] Ibn al-Anbārī. Kitāb al-Aḍdād. – Bayrut: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1997.

ikki qarama-qarshi tomonga tortishi semantikaning nisbiy va vaziyatga bog‘liq tabiatini ko‘rsatadi. Tovush va ruhiy holat bilan bog‘liq «طرب» misoli esa his-tuyg‘ular tilidagi qarama-qarshi holatlarning bir birlikda jamlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ibn Durayd o‘zining «جمهرة اللغة» (“Jamharat al-lughah”) asarida bir nechta azdad so‘zlarni keltirib o‘tadi[1]. Masalan, «ثَقَّل» (*thaqala*) lafzi bir tomondan og‘ir bo‘ldi, ya’ni jismoniy yoki hissiy og‘irlikni bildirsa, boshqa tomondan u bilan bog‘liq shakllar orqali yuklash, bosim berish, ya’ni og‘irlikni hosil qilish yoki oshirish ma’nosini anglatadi. Shu ildizdan kelib chiqqan «الثِّقْل» (*aṯ-thiql*) esa yuk, og‘irlik ma’nosida qo‘llanadi. Demak, bu yerda zidlik to‘liq qarama-qarshilik shaklida emas, balki harakat va holatning o‘zaro almashuvi orqali yuzaga keladi. Shuningdek, «ثَقَّلَ القوم» (*thaqala al-qawm*) iborasi og‘irlashdi, sustlashdi ma’nosini bildiradi. Ayrim nutqiy vaziyatlarda esa bu ifoda faol holatdan passivlikka o‘tishni anglatadi. Bu esa enantiosemiya pragmatik qatlamda ham yuzaga kelishini ko‘rsatadi.

«جَدَّ» (*jadda*) so‘zi bir tomondan *kesdi, ajratdi,* boshqa tomondan esa *ulug‘ bo‘ldi, yuksaldi* ma’nolarini bildiradi. Shu ildizdan hosil bo‘lgan «الجَدّ» (al-jadd) esa *buyuklik, qudrat, jiddiylik* ma’nolarida qo‘llanadi. Hadisdagi «ولا ينفع ذا الجد منك الجد» (wa lā yanfaʿu dhā al-jaddi minka al-jadd) iborasida (“Boylik egasiga uning boyligi foyda bermaydi”) bu lafz ikki xil semantik qatlamda ishlatilgan: biri boylik va mavqe, ikkinchisi esa jiddiylik yoki kuch ma’nosida.

«جَزَل» (*jazala*) so‘zi *katta, ulkan bo‘ldi*, yoki *kichik, mayda* bo‘ldi ma’nolarini bildiradi. Shu ildizdan kelib chiqqan «جَزْلَة» (jazlah) so‘zi ham katta bo‘lak va kichik qism ma’nolarida qo‘llanadi. Bundan tashqari, «جَزَلَ العطاء» (jazala al-ʿaṭāʾ) iborasi bir kontekstda ko‘p berdi, boshqa kontekstda esa kam berdi ma’nosini anglatadi. Shuningdek, «جَزَلَ الرجلُ» (jazala ar-rajul) iborasi kuchli zarba berdi ma’nosida ham, ayrim hollarda bo‘lindi, ajraldi ma’nosida ham ishlatiladi. Bu esa harakatning kuchli va zaif natijalari o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ifodalaydi.

Leksik sathga oid hodisalar – omonimiya, antonimiya va polisemiya – tilshunoslikda yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, enantiosemiya (aḍdād so‘zlar) ushbu tizim ichida o‘ziga xos va murakkab hodisa sifatida alohida e’tibor talab qiladi. U tashqi jihatdan polisemiya bilan yaqin ko‘rinsa-da, aslida ma’no ichidagi qarama-qarshilikni mujassam etgani bilan undan keskin farqlanadi. Shu sababli enantiosemiyaning mohiyatini anglash uchun uni boshqa leksik hodisalar bilan qiyosiy o‘rganish muhim ilmiy zaruratdir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, leksik hodisalarni tasniflashda asosiy mezon sifatida shakl va ma’no munosabati olinadi. Omonimiyada shakl birligi, ma’no mustaqilligi ustun bo‘lsa, antonimiyada ikki alohida birlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik asosiy rol o‘ynaydi, polisemiyada esa bitta shakl doirasida turli, ammo o‘zaro bog‘liq ma’nolar mavjud bo‘ladi. Enantiosemiya (aḍdād so‘zlar) esa aynan shu tizim ichida alohida o‘rin egallaydi: unda bitta shakl doirasida nafaqat turli, balki o‘zaro zid ma’nolar jamlanadi. Demak, bu hodisani aniqlashda shakldan ko‘ra ma’no markaziy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, enantiosemiyaning sinonimiya va omonimiya bilan munosabati ham o‘ziga xosdir. Sinonimiyada turli shakllar bir ma’noni ifodalasa, omonimiyada bir shakl turli, lekin o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan ma’nolarga ega bo‘ladi. Enantiosemiyada esa bir shakl ichida qarama-qarshi ma’nolar mavjud bo‘lib, bu hodisa na sinonimiyaga, na to‘liq omonimiyaga mos keladi. Shu jihatdan u mazkur hodisalardan tubdan farqlanadi.

Zamonaviy lingvistik yondashuvlarda enantiosemiya (aḍdād so‘zlar) turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar uni polisemiya, omonimiya va antonimiya kesishgan nuqtadagi hodisa sifatida baholasa, boshqalar uni mustaqil leksik kategoriya sifatida ko‘radilar. Bu xilma-xil qarashlar enantiosemiyaning murakkab va ko‘p qatlamli tabiatga ega ekanini ko‘rsatadi. Umuman olganda, enantiosemiya (aḍdād so‘zlar) leksik sathdagi boshqa hodisalar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ularning hech biriga to‘liq singib ketmaydi. Aksincha, u ma’no tizimidagi ichki qarama-qarshilikni aks ettiruvchi, tilning semantik imkoniyatlarini kengaytiruvchi va uning tarixiy hamda funksional rivojini yorituvchi alohida lingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Ushbu maqolada arab tilidagi enantiosemiya (aḍdād so‘zlar) hodisasining lingvistik tabiati, uning polisemiya, omonimiya va antonimiya bilan o‘zaro munosabati tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur hodisaning nazariy asoslari, klassik arab tilshunoslari qarashlari hamda «جمهرة اللغة» (jamharat al-lughah) asari misolida enantiosemik birliklarning lug‘aviy-semantik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Resume. This article analyzes the linguistic nature of enantiosemy (aḍdād words) in the Arabic language and its relationship with polysemy, homonymy, and antonymy. It also examines the theoretical foundations

1 Ibn Durayd. Jamharat al-Lughah. – Bayrut: Dār al-‘Ilm li al-Malāyīn, 1987.

of this phenomenon, the views of classical Arab linguists, and the lexical-semantic features of enantiosemic units based on the example of «Jamharat al-Lughah».

Резюме. В данной статье анализируется лингвистическая природа энантиосемии (aḍdād слов) в арабском языке, а также её соотношение с полисемией, омонимией и антонимией. Рассматриваются теоретические основы данного явления, взгляды классических арабских лингвистов и лексико-семантические особенности энантиосемических единиц на материале труда «جمهرة اللغة» (jamharat al-lughah).

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ENGLISH PROVERBS WITH NUMBER COMPONENTS

Panjieva Nasiba Narmaxmatovna,
Assistant professor of Termez State University

Saibnazarova Nazokat
Master's student of Termez State University

Proverbs are concise expressions that convey wisdom, advice, or a cultural observation, often passed down through generations. Russian scholar V. P. Filitsyna believes that a proverb is a decomposable combination of words in which the meaning of each word does not change when it is used outside this combination[1]. Like other types of phraseological units, proverbs are characterized by their meanings. Most proverbs are semantically twofold: on the one hand, they fully depend on the literal meaning of the utterance, which follows directly from the meanings of the words that constitute them; on the other hand, they are characterized by a figurative meaning that does not correspond to the literal meanings of these words. Thus, the literal and figurative meanings coexist within the same proverb. At the same time, the figurative meaning plays the main role, as it determines the functioning of the proverb in speech. Therefore, A. V. Kunin includes in the sphere of phraseology only those English proverbs whose components are either completely or partially reinterpreted[2].

Despite their apparent simplicity, proverbs and sayings are rather complex formations. In English and other languages, there exist hundreds of thousands of proverbs and sayings; they were created by generations of people and developed and improved over centuries. Proverbs, which Aristotle called «the preserved fragments of ancient philosophy», as well as various maxims, proverbial expressions, and apt sayings–whether read or heard–were collected by many scholars as early as antiquity[3]. Plutarch, Quintilian, and later Erasmus of Rotterdam and many other scholars attributed great educational value to them.

Proverbs are usually understood as short sayings relating to various aspects of life that have entered everyday speech. A proverb is always a sentence. It pursues a didactic aim–to teach, warn, advise, and so on. The generalizing nature of proverbs was noted by A. A. Potebnya: «For an expression to truly become a proverb, it is necessary to take a case or a series of cases from another sphere; a particular image must acquire a figurative meaning–then it becomes both a poetic work and a proverb»[4].

The Role of Numbers in Proverbs Numbers in

[1] Фелицына В.П., Мокиенко В.М. Русские фразеологизмы. – М., 1990.
[2] Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М., 1972
[3] Архангельский.В.И. Устойчивые фразы в современном русском языке. – Ростов-на-Дону, 1964.
[4] Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М., 1976; Фелицына В.П., Мокиенко В.М. Русские фразеологизмы. – М., 1990.